

№447, 23-dekabr, 2021 y.

**COVID
19**

COVID-19 ga qarshi vaksinalarning
ishlanmalari bo'yicha

DAYJEST

O'zbekiston Respublikasi Innovatsion rivojlanish vazirligi huzuridagi
Ilmiy-texnik axborot markazi











Toshkent-2021

Jahonda pandemiya bilan bog'liq vaziyat

2021 y. 22-dekabr holatiga ko'ra

Umumiy zararlanganlar soni	-	276 570 945	(+ 748 277)
Sog'ayganlar soni	-	248 035 012	(+ 599 705)
Vafot etganlar soni	-	5 384 992	(+ 7 471)

Mamlakatlar bo'yicha bemorlar soni

	AQSh	-	52 253 848	(+ 181 264)
	Hindiston	-	34 758 481	(+ 6 317)
	Braziliya	-	22 219 477	(+ 3 621)
	Buyuk Britaniya	-	11 542 143	(+ 90 629)
	Rossiya	-	10 267 719	(+ 25 907)
	Turkiya	-	9 209 740	(+ 19 859)
	Fransiya	-	8 713 756	(+ 72 832)
	Germaniya	-	6 869 495	(+ 35 049)
	Eron	-	6 175 782	(+ 2 413)
	O'zbekiston	-	197 566	(+ 174)

Manba: <https://www.worldometers.info/coronavirus/>



O'zbekistonda COVID-19 qarshi vaksinatsiya bo'yicha hisobot

2021 y. 21-dekabr holatiga ko'ra

Hududlar	Jami emlanganlar soni	Bir kunda emlanganlar soni
Qoraqalpog'iston Respublikasi	1 956 667	8 504
Andijon viloyati	3 581 835	19 320
Buxoro viloyati	2 124 619	10 054
Jizzax viloyati	1 378 890	3 822
Qashqadaryo viloyati	2 859 539	11 488
Navoiy viloyati	1 273 249	4 265
Namangan viloyati	3 617 434	12 742
Samarqand viloyati	4 391 034	33 753
Surxondaryo viloyati	3 035 815	13 185
Sirdaryo viloyati	838 558	3 094
Toshkent viloyati	3 588 481	22 048
Farg'ona viloyati	4 132 916	20 109
Xorazm viloyati	2 282 084	9 844
Toshkent sh.	2 684 846	25 119
Jami	37 745 967	199 471

Manba: SSV matbuot kotibi // <https://t.me/ssvmatbuotkotibi>



Koronavirusga qarshi Nuvaxovid vaksinasi JSST tomonidan tasdiqlandi

Jahon sog'liqni saqlash tashkiloti (JSST) Novavax kompaniyasining AQSHda joylashgan Nuvaxovid antikoronavirus vaksinasini favqulotda dori vositalari ro'yxatiga kiritganini e'lon qildi. Yevropa regulyatori tomonidan ma'lumotlariga ko'ra amalga oshirilgan vakcina samaradorligi taxminan 90% ni tashkil qiladi [2].

"Jahon sog'liqni saqlash tashkiloti Nuvaxovid uchun Favqulodda foydalanish uchun preparatlar Reyestrini chop etgach Yevropa Dorilar Agentligi tomonidan baholandi va tasdiqlandi", – deb e'lon qilindi xabarda.

Yevropa Tibbiyot agentligining (EMA) ma'lumotiga ko'ra, ikki yirik klinik sinov natijalari yangi vakcina 18 va undan katta yoshdagi odamlarda COVID-19 ning oldini olishda samarali ekanligini ko'rsatdi. Tadqiqotda jami 45 mingdan ortiq kishi ishtirok etdi [3].

Meksika, Qo'shma Shtatlar va Buyuk Britaniyadagi sinovlar Nuvaxovidning ikkinchi dozasi dan bir hafta o'tgach, simptomatik COVID-19 holatlari 90,4 foizga kamayganini ko'rsatdi.



Favqulodda ro'yxatga olish (EUL) protsedurasi sog'liqni saqlash sohasidagi favqulodda vaziyatlarda yangi mahsulotlarning sog'liq uchun yaroqliligini baholaydi. Maqsad - xavfsizlik, samaradorlik va sifatning qat'iy mezonlariga rioya qilgan holda, favqulodda vaziyatlarni bartaraf etish uchun dori-darmonlar, vaktsinalar va diagnostika

vositalarini imkon qadar tezroq taqdim etishdir [4].

Baholash favqulodda vaziyatdan kelib chiqadigan tahdidni, shuningdek, har qanday potensial xavflarga nisbatan mahsulotdan foydalanishdan olinadigan foydalarni hisobga oladi [5].

Mutaxassislar favqulodda vaziyatdan kelib chiqadigan xavf darajasini, shuningdek, u yoki bu vositaning samaradorlik darajasini va undan foydalanish bilan bog'liq potensial xavfni baholaydilar [6]. Ro'yxatga kiritilgandan so'ng, ishlab chiqaruvchi kompaniyalar to'liq litsenziya va JSST roziligini olish uchun zarur bo'lgan tadqiqotlarni davom ettirishi kutilmoqda.

AstraZeneca vaksinatsiyasining to'liq kursidan so'ng 15 haftadan o'tgach COVID-19dan himoyalanih 86,4% dan 42,2% gacha pasayadi

Bir necha oy oldin Oksford-AstraZeneca bilan emlashning to'liq kursini olgan odamlar uchun uchinchi (kuchaytiruvchi) dozani olish imkoniyatini ko'rib chiqish talab etiladi, chunki bu vaqt ichida ularning og'ir COVID-19 dan himoyasi sezilarli darajada kamaydi [7]. Tadqiqot mualliflari Braziliya va Shotlandiyadagi 18 yoshdan kattalar o'rtasidagi holatlar tekshiruvini olib bordilar. COVID-19 ning og'ir natijalari emlash kursi tugaganidan keyin ikkinchi yoki uchinchi haftadan boshlab kuzatildi.



Shotlandiyada monitoringning boshlanish nuqtasi 2021-yil 19-maydan boshlangan bo'lsa, Braziliyada bu jarayon 18-yanvardan boshlab amalga oshirildi va 25-oktabrgacha davom etdi [8]. Shotlandiyada vassina samaradorligi ikkinchi dozadan keyin 14-15 xaftada dastlabki 83,7% dan 75,9% gacha, 18-19 xaftada esa 63,7% gacha kamaydi.

Braziliyada bu ko'rsatkichlar 86,4%, 59,7% va 42,2% ga pastladi.

Janubiy Koreya, buyuk Britaniya, Tailand va Finlyandiya (xavf guruhlar uchun) yuqori sur'atlarda tarqalib borayotgan yanada yuqumli "Omicron" ning ko'rinishini hisobga olgan holda, Janubiy Koreya, Buyuk Britaniya, Tailand va Finlyandiya (xavf guruhlar uchun) ikkinchi dozadan keyingi intervalni uch oyga, Belgiya to'rt oyga, Fransiya, Singapur, Tayvan,



Italiya va Avstraliya - beshtagacha, AQSH, Janubiy Afrika, Germaniya va boshqalar - olti oygacha qisqartirdi.

Yangi Zelandiya COVID-19 ga qarshi kuchaytiruvchi doza tartibini o'zgartiradi

Yangi Zelandiyada, aksariyat mamlakatlarda bo'lgani kabi, COVID-19 vaksinasining uchinchi kuchaytiruvchi dozasini qabul qilish vaqti olti oyni tashkil qiladi. Biroq, yangi 2022-yil boshidan bu muddat to'rt oygacha qisqartirildi. Bu haqda Nine News telekanali xabar berdi [9].

Yanvar oyidan boshlab emlangan yangi zelandiyaliklarning 82 foizi qayta emlash huquqiga ega bo'ladi.



Yangi Zelandiya vaziri Kris Xipkinsning konferensiyasida "Ikki doza "Omicron" kasalligidan yaxshi himoya qilish mumkin bo'lsada, uchinchi doza COVID-19 tarqalishidan yanada yaxshi himoya qiladi va jiddiyroq kasallik ehtimolini kamaytiradi"

"Sputnik V" bilan qayta emlanganlarda "Omicron" shtammiga qarshi antitanalar yuzaga keldi

Rossiyaning Gamaleya markazi mutaxassislari "Sputnik V" vaksinasi bilan qayta emlangan barcha sinovdan o'tgan namunalarda koronavirusning "Omicron" shtammiga antitanalar ishlab chiqilganligini aniqladi [10]. Bu haqda seshanba kuni Twitterda markaz tadqiqotiga asoslanib xabar berildi.

Biz barcha qayta emlangan bemorlarda koronavirusning Omicron shtammiga qarshi neytrallashtiruvchi antikorga ega ekanligini aniqladik. Bundan tashqari, qayta emlanganlarning zardobidagi "Omicron" ga neytrallashtiruvchi antikorga darajasi vaksinatsiya qilinganlarning zardobidagi koronavirusning asl shtammi (B.1.1.1.) antitanalar darajasidan biroz yuqoriroqdir"— deyiladi xabarda [11].



Avvalroq markaz "Sputnik V" "Omicron" shtammiga antitanalarning barqaror neytrallashtiruvchi javobini keltirib chiqarishi hamda kasallikning og'ir holatlari va kasalxonaga yotqizishdan himoya qilishi haqida xabar bergan edi. "Sputnik V" vaksinasining "Sputnik Light" kuchaytiruvchi inyeksiyasi bilan yangi shtammga qarshi kutilgan samaradorligi 80% dan ortiq bo'lishi mumkin [12].





COVID
19

Manbalar

1. Reported Cases and Deaths by Country, Territory, or Conveyance // <https://www.worldometers.info/coronavirus/> (22.12.2021)
2. ВОЗ одобрила вакцину от коронавируса Nuvaxovid // <https://ria.ru/20211221/vaktsina-1764757635.html> (22.12.2021)
3. ВОЗ одобрила вакцину от коронавируса Nuvaxovid // <https://news.ru/world/voz-odobrila-vakcinu-ot-koronavirusa-nuvaxovid/> (22.12.2021)
4. WHO lists 10th COVID-19 vaccine for emergency use : Nuvaxovid // <https://www.who.int/news/item/21-12-2021-who-lists-10th-covid-19-vaccine-for-emergency-use-nuvaxovid> (22.12.2021)
5. WHO lists Nuvaxovid as 10th coronavirus vaccine for emergency use // <https://www.aa.com.tr/en/europe/who-lists-nuvaxovid-as-10th-coronavirus-vaccine-for-emergency-use/2453801> (22.12.2021)
6. ВОЗ одобрила 10-ю вакцину от COVID-19 для использования в экстренном порядке // <https://newtimes.kz/mir/141982-voz-odobrila-10-iu-vaktsinu-ot-covid-19-dlia-ispolzovaniia-v-ekstrennom-poriadke> (22.12.2021)
7. Кто с CoviShield и AstraZeneca: какая у вас защита от тяжелого COVID спустя месяцы – отчет // <https://news.liga.net/world/news/kto-s-covisheild-i-astrazeneca-kakaya-u-vas-zaschita-ot-tyajelogo-covid-spustya-mesyatsy-otchet> (22.12.2021)
8. Защита от тяжелого COVID-19 после полного курса вакцинации AstraZeneca через 15 недель падает от 86,4% до 42,2%. Инфографика // <https://censor.net/ru/n3306408> (22.12.2021)
9. В Новой Зеландии изменяют порядок ревакцинации от COVID-19 // <https://regnum.ru/news/society/3457436.html> (22.12.2021)
10. У всех ревакцинированных "Спутником V» выявили антитела к "омикрону" // <https://www.belnovosti.by/koronavirus-covid-19/u-vseh-revakcinirovannyh-sputnikom-v-vyyavili-antitela-k-Omicronu> (22.12.2021)
11. Центр имени Гамалеи выявил антитела к "омикрону" у всех ревакцинированных "Спутником V» // <https://www.kommersant.ru/doc/5141708> (22.12.2021)
12. Антитела к штамму "омикрон" выявили у всех ревакцинированных "Спутником V» // <https://www.tatar-inform.ru/news/antitela-k-stammu-Omicron-vyyavili-u-vsex-revakcinirovannyh-sputnikom-v-5847875> (22.12.2021)



**COVID
19**

**Coronavirus
Vaccine**



O'zbekiston Respublikasi Innovatsion rivojlanish vazirligi huzuridagi
Ilmiy-texnik axborot markazi

Toshkent-2021